



THE HARMONY OF PHILOSOPHY AND TOURISM IN THE PROCESS OF HISTORICAL DEVELOPMENT

Bakhtiyor Mirzarakhimov

Associate Professor, Department of Philosophy and National Ideas

Fergana State University

E-mail: alfargoniy.uz@gmail.com

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: philosophy of tourism, aesthetic experience, phenomenological approach, culture, human and nature, system of values.

Received: 19.10.25

Accepted: 20.10.25

Published: 21.10.25

Abstract: This article analyzes the philosophical and aesthetic essence of tourism, as well as its cultural and axiological significance in human life. The study interprets tourism not merely as an economic process but as a way of perceiving the world, attaining self-awareness, and living in harmony with nature. Phenomenological, axiological, and ontological approaches are applied to reveal the role of tourism as an aesthetic experience. The article demonstrates that the social, spiritual, and moral dimensions of tourism are closely interconnected and play a vital role in shaping the worldview of modern individuals. The results of the study contribute to a new conceptual understanding of the philosophy of tourism and its nature as an aesthetic and social value.

TARIXIY RIVOJLANISHI JARAYONIDA FALSAFASI VA TURIZMNING UYG'UNLIGI

Baxtiyor Mirzaraximov

Falsafa va milliy g'oya kafedrasi dotsenti

Farg'ona davlat universiteti

e-mail: alfargoniy.uz@gmail.com

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: turizm falsafasi, estetik tajriba, fenomenologik yondashuv, madaniyat, inson va tabiat, qadriyatlar tizimi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizmning falsafiy va estetik mohiyati, uning inson hayotidagi madaniy va aksiologik

ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda turizm faqat iqtisodiy jarayon emas, balki insonning dunyoni idrok etish, o'zini anglash va tabiat bilan uyg'un yashash shakli sifatida talqin etiladi. Ishda fenomenologik, aksiologik va ontologik yondashuvlar qo'llanilib, turizmning estetik tajriba sifatidagi o'rni ochib berilgan. Maqolada turizmning ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy jihatlari o'zaro uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqilib, uning zamonaviy inson dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqot natijalari turizm falsafasini yangi konseptual yondashuvlar asosida tushunishga, uning estetik va ijtimoiy qadriyat sifatidagi mohiyatini anglashga imkon beradi.

ГАРМОНИЯ ФИЛОСОФИИ И ТУРИЗМА В ПРОЦЕССЕ ИСТОРИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Бахтиёр Мирзарахимов

Доцент кафедры философии и национальной идеи

Ферганский государственный университет

Эл. почта: alfargoniy.uz@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: философия туризма, эстетический опыт, феноменологический подход, культура, человек и природа, система ценностей.

Аннотация: В данной статье анализируется философская и эстетическая сущность туризма, его культурное и аксиологическое значение в жизни человека. В исследовании туризм рассматривается не только как экономический процесс, но и как форма восприятия мира, самопознания и гармоничного взаимодействия человека с природой. В работе применены феноменологический, аксиологический и онтологический подходы, раскрывающие значение туризма как эстетического опыта. В статье показано, что социальные, духовные и нравственные аспекты туризма взаимосвязаны и играют важную роль в формировании мировоззрения современного человека. Результаты исследования позволяют по-новому осмыслить философию туризма и понять его сущность как эстетической и социальной ценности.

Kirish. Turizm insoniyat tarixida harakat, sayohat, bilish, madaniyatlararo muloqot va estetik idrok kabi qadimiy ehtiyojlarning zamonaviy ifodasidir. Bugungi globallashuv sharoitida turizmning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish zarurati shundan kelib chiqadiki, u insonning borliqni idrok etish, o'zini anglash va boshqa madaniyatlarni tushunish shakli sifatida talqin qilinmoqda. Shu ma'noda, turizm insonning dunyo bilan muloqoti, o'zligini kashf etish va estetik tajriba orttirish vositasi sifatida falsafaning markaziy kategoriyalari — mavjudlik, erkinlik, qadriyat va go'zallik bilan bevosita bog'liqdir. Ammo uning estetik va falsafiy jihatlarini tahlil etish insoniyatning madaniy taraqqiyotini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Turizm – bu insonning o'z “men”ini yangi makon va madaniyatlar orqali anglash jarayonidir. Falsafiy nuqtai nazardan turizm, insonning harakat va tajriba orqali ma'noni izlash faoliyatidir. U insonning estetik hissiyotlarini boyitadi, madaniy tafakkurni kengaytiradi va millatlar o'rtasidagi muloqotni mustahkamlaydi. Shu bois, turizmni nafaqat iqtisodiy tahlil mezonlari bilan, balki aksiologik (qadriyatlar tizimi), fenomenologik (inson tajribasi), va madaniy-falsafiy (inson va borliq o'rtasidagi aloqalar) yondashuvlar asosida o'rganish muhimdir.

Materiallar va metodlar. Ushbu tadqiqotda turizmning falsafiy va estetik mohiyatini tahlil qilishda gumanitar yondashuv asos qilib olindi. Ishda nazariy, fenomenologik, aksiologik va ontologik metodlar uyg'un qo'llanildi. Tadqiqot materiali sifatida X.M.Entsensberger, E.Toftler, B.Fouler, Butowski va Wang singari zamonaviy falsafa va turizmshunoslik olimlarining ilmiy asarlari tahlil qilindi. Ushbu manbalar turizmni insonning ichki dunyosi, estetik idroki va madaniy tajribasi bilan bog'liq falsafiy jarayon sifatida ilmiy asoslaydi.

Tahlilning asosiy metodologik asosi sifatida fenomenologik yondashuv tanlandi. Bu usul orqali insonning sayohat tajribasidagi hissiy va ruhiy kechinmalari, tabiat bilan o'zaro munosabati, shuningdek, makon va vaqtni idrok etish shakllari o'rganildi. Aksiologik metod yordamida turizmning qadriyatlar tizimidagi o'rni, inson va tabiat o'rtasidagi axloqiy mas'uliyat, barqaror turizm g'oyalari tahlil qilindi. Ontologik tahlil esa turizmni inson mavjudligining bir shakli, “borliq bilan muloqot” tajribasi sifatida izohlashga yo'naltirildi. Taqqoslama va kontseptual tahlil usuli orqali Entsensberger tomonidan ilgari surilgan “vaqt, makon va sokinlik” tushunchalari Toftlerning “Future Shock” nazariyasi bilan solishtirilib, zamonaviy turizmning falsafiy dinamikasi yoritildi. Foulerning globalizatsiya, madaniyat iste'moli va kommunikatsiya vositalariga doir qarashlari turizmning ijtimoiy-madaniy kontekstini anglashga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida matn tahlili usuli yordamida zamonaviy turizm nazariyasining manbalari va tushunchalari qayta tahlil qilindi. Natijada, turizmning iqtisodiy jarayondan tashqari, falsafiy, estetik va gnoseologik fenomen sifatida talqin etilishi uchun ilmiy asos yaratildi.

Muhokama va natijalar. Nemis yozuvchisi X.M.Entsensberger antropogen sivilizatsiya sharoitida turizmning rivojlanishida zavqlanish muhim ahamiyatga ega bo'lmagan omil, aksincha

vaqt, e'tibor, makon, sokinlik, atrof-muhit, xavfsizlik kabi omillar muhim ahamiyatga egadir[1] deb ta'kidlaydi. Olim tomonidan keltirilgan omillar insonning texnogen sivilizatsiyadan yiroqlashib sokinlikka extiyoj sezayotganligini bildiradi, bu esa bugungi kun turizm yo'nalishlarida ekoturizm va qishloq turizmi tushunchalari bilan izohlanadi. X.M. Ensensbergerning mazkur fikri turizmning zamonaviy tabiatiga chuqur nazar tashlaydi. Unga ko'ra, insonning sayohatga bo'lgan ehtiyoji endi faqat dam olish yoki halovat izlash bilan chegaralanmaydi, balki texnogen muhitdagi ruhiy va ma'naviy charchoqni yengish, tabiat bilan qayta aloqa o'rnatish, vaqt va makonni boshqacha anglash bilan bog'liq holatga aylanmoqda. Bu jarayonda turizm nafaqat iqtisodiy yoki madaniy, balki falsafiy-ekzistensial tajriba sifatida namoyon bo'ladi. Ensensberger ta'kidlagan omillar — vaqt, e'tibor, makon va sokinlik — inson ongining qayta tiklanishi, tabiat bilan uyg'unlashuv orqali ichki muvozanatga erishishning zarur sharti sifatida talqin etiladi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, turizmning mohiyati faqat joydan joyga ko'chish emas, balki ichki dunyo bilan muloqot jarayoni, o'zini anglash va dunyoqarashni kengaytirish ifodasiga aylanadi. Bugungi kunda ekoturizm, agroturizm, yo'lsiz turizm (off-grid tourism) yoki "slow tourism" kabi tendensiyalar aynan shunday ehtiyoj natijasida paydo bo'ldi. Bu yo'nalishlar insonning tabiat bilan bevosita muloqot qilish, texnologik shovqindan uzoqda qolish va real hayotning "his etiladigan" jihatlarini qayta kashf etish istagini qondirmoqda. Turizm falsafasi nuqtai nazaridan bu holat insonning estetik ehtiyojlarini qayta shakllantirish, zamonaviy hayotda vaqtni idrok etish usullarini o'zgartirish bilan bog'liqdir.

Ekoturizm va qishloq turizmi faqat dam olishning yangi shakli emas, balki madaniy va ma'naviy qayta tiklanish amaliyoti sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Chunki bu turdagi sayohatlarda inson tabiat bilan "subyekt-obyekt" munosabatida emas, balki hamkorlik va tenglik asosida bo'ladi. Bu falsafiy nuqtai nazardan muhim, chunki inson tabiatga hukmron emas, balki uning bir bo'lagi ekanligini anglaydi. Bu anglash ekologik ongni shakllantirish, insoniyatning texnogen sivilizatsiyada yo'qotgan ma'naviy qadriyatlarini tiklashga xizmat qiladi.

Ensensberger ta'kidlagan omillar — vaqt, makon va sokinlik — nafaqat turizm psixologiyasining, balki zamonaviy inson falsafasining markaziy kategoriyalariga aylanmoqda. Bu omillar turizmning iqtisodiy yoki industrial modeliga emas, balki insonning ichki ehtiyojlariga asoslangan yangi madaniy va ma'naviy tafakkurni shakllantirmoqda. Demak, XXI asr turizmi estetik tajriba, ma'naviy muvozanat va ekologik his-tuyg'ular uyg'unligidan iborat falsafiy amaliyot sifatida namoyon bo'lmoqda.

Faylasuf olim E.Toffler tadqiq qilgan zamonaviy hayot tuyg'usining manbalari turizm amaliyotida sanoatlashgan jamiyatda iqtisodiy, texnologik va axborot sohalaridagi o'zgarishlar natijasida migratsiya jarayonlariga, odamlarning keskin ko'payishiga, odamlar va joylar

o'rtasidagi barqaror aloqalarning yo'q qilinishiga, muqim ijtimoiy makonga bog'lanishni kamayishiga e'tibor qaratadi[2]. E.To'ffler konsepsiyasiga binoan ommaviy turistik xizmatlar mashhurligining sabablarini ko'rsatishimiz mumkin. Ular industriyaning yutuqlari tufayli «passiv harakatni jadallashtirishga bo'lgan kuchli intilish» tufayli aholining bo'sh vaqtining mutlaq o'sishini o'z ichiga oladi[3]. Elvin To'fflarning zamonaviy hayot tuyg'usiga doir tahlillari turizm falsafasini anglashda muhim nazariy asos hisoblanadi. Uning fikricha, texnogen va postindustrial jamiyatda insonning hayot tarzidagi o'zgarishlar nafaqat iqtisodiy yoki texnologik sohalarga taalluqli, balki ong, his-tuyg'u va ijtimoiy identifikatsiya jarayonlariga ham ta'sir ko'rsatadi. To'ffler ta'kidlaganidek, sanoatlashgan jamiyatdagi tez sur'atdagi modernizatsiya va urbanizatsiya odamlarning makon bilan bog'liq barqaror aloqalarini yo'qotdi. Bu holat natijasida inson o'zining an'anaviy "ijtimoiy ildizlar"idan uzoqlashib, ko'chmanchilik ruhiyatini zamonaviy hayot tarzi sifatida qabul qila boshladi.

Bu jarayonni turizm amaliyotida yaqqol ko'rish mumkin. Turizm insonning zamonaviy hayotdagi "o'z joyini topish" intilishining, ma'lum ma'noda esa, doimiy qidiruv holatining ifodasi bo'lib qoldi. To'fflarning "o'zgarish shoki" (Future Shock) nazariyasida ta'kidlanganidek, texnologik va axborot sohalaridagi katta o'zgarishlar inson ongida vaqt va makonni idrok etish usullarini o'zgartirdi. Inson doimiy harakatda bo'lish, yangi joylarni kashf etish orqali o'zining mavjudligini his etadi. Turizm esa bu ehtiyojni ijtimoiy maqomga aylantiradi — ya'ni sayohat qilish zamonaviy hayotning ajralmas belgisiga aylandi.

Turizm falsafasi nuqtai nazaridan, To'ffler tahlil qilgan ushbu o'zgarishlar jamiyatdagi estetik va madaniy qadriyatlarning qayta shakllanishiga olib keldi. Inson endi makonni faqat fizik hudud sifatida emas, balki ma'naviy tajriba, hissiy ehtiyoj va ijtimoiy muloqot manbai sifatida qabul qila boshladi. Shu boisdan turizm faqat iqtisodiy faoliyat emas, balki inson ongining o'zgarishi, ya'ni "mobil identichlik" fenomeni bilan chambarchas bog'langan jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi turizm tendensiyalarida — qisqa muddatli safarlar, "nomadizm" (digital nomad life), virtual sayohatlar va madaniy almashinuv kabi formalarda — To'fflarning nazariyasi amalda namoyon bo'lmoqda. Insonning muqim joyga bog'lanmaslik holati yangi turdagi erkinlikni ifoda etsa-da, u bilan birga yangi turdagi noaniqlik va ruhiy charchoqni ham keltirib chiqaradi. Shu jihatdan turizm zamonaviy hayotdagi ziddiyatli jarayonlarni — harakat va tinchlik, erkinlik va bog'liqlik, moddiy dunyo va ma'naviy ehtiyoj o'rtasidagi muvozanatni anglash vositasiga aylandi. Demak, To'fflarning tahlili turizmni faqat iqtisodiy emas, balki falsafiy-antropologik fenomen sifatida anglash imkonini beradi.

Turizm postindustrial jamiyatning ijtimoiy-madaniy voqeligini o'zgartirish ko'rsatkichi sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'sib bordi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

«Yuqori texnologiyali jamiyat uchun har yilgi sayohatlar doimiy yashash joylarini o'zgartirishning ikkinchi tabiatiga aylandi»[4],- deb ta'kidlagan. Sivilizatsiyaning ko'chib yuruvchi mohiyatini ochib bergan E.Toffler: «Biz bir marta ishlatiladigan plastinka va pivo qutilarini tashlaganimiz singari, begona makonlarni ham o'zimiz uchun kashf etib boramiz»[5]. Elvin Tofflarning mazkur so'zi zamonaviy sivilizatsiyaning eng muhim paradokslaridan birini ochib beradi. U insonning iste'molga asoslangan madaniyatdagi psixologiyasini falsafiy tarzda tahlil qiladi. «Bir marta ishlatiladigan plastinka va pivo qutilari» — bu zamonaviy jamiyatdagi vaqtinchaliklik, arzimastlik va tez iste'mol qilish mentalitetining ramzidir. Toffler ushbu fikr orqali insonning tabiat, makon va madaniyat bilan munosabati ham xuddi shunday «foydalanilgan va tashlab ketilgan» munosabatga aylanganini nazarda tutadi. Bu falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, turizm amaliyotidagi «mas'uliyatsiz sayohat» fenomenini anglatadi.

Zamonaviy turizm ko'pincha iste'mol falsafasi asosida shakllanadi: odamlar joylarni his etish, ular bilan ma'naviy bog'lanish uchun emas, balki qisqa vaqtda ko'proq taassurot olish, suratga olish va keyin tezda boshqa makonga o'tish uchun sayohat qiladi. Bu holatda makonning qadri uning ichki ma'nosida emas, balki «ijtimoiy kapital» sifatida — ya'ni insonning tajribasini boshqalar oldida namoyon qilish vositasida namoyon bo'ladi. Toffler bu holatni madaniy vaqtning tezlashishi va estetik qadriyatlarning yuzakilashishi bilan bog'laydi.

Falsafiy nuqtai nazardan, bu jarayon «vujudiy uzilish» holatiga olib keladi. Inson tabiat va makon bilan ildizli bog'lanish hissidan ayrilib, doimiy harakatdagi, lekin ma'no jihatidan bo'sh ekzistensiyaga aylanadi. Bu holatni fenomenologlar, xususan, Martin Haydegger va Moris Merlo-Ponti «joysizlik» (placelessness) deb ta'riflagan. Tofflarning fikricha, insonning begona makonlarni doimiy ravishda kashf etishi — ya'ni bir makondan boshqasiga tez o'tishi — texnogen jamiyatdagi ma'naviy uzilishni yanada chuqurlashtiradi.

Biroq, bu jarayonni mutlaq salbiy deb baholab bo'lmaydi. Zamonaviy turizmning bu shakli insonning yangi madaniyatlar, turfa hayot uslublari va dunyoqarashlar bilan tanishish imkonini ham yaratadi. Masala shundaki, agar sayohat «iste'mol» emas, balki «idrok va anglash» jarayoniga aylansa, u holda Toffler ta'kidlagan «bir marta ishlatish falsafasi»ni yengib o'tish mumkin bo'ladi.

Shunday qilib, Tofflarning so'zi zamonaviy turizmdagi chuqur antropologik va axloqiy muammolarni ifoda etadi: inson makonni iste'mol qiladimi yoki uni his etadimi? Bu savol XXI asr turizmining falsafiy mohiyatini belgilaydi. Demak, kelajak turizmi «tez iste'mol etiladigan makonlar» emas, balki ma'naviy muloqot va estetik tajribaga asoslangan «idrok etiladigan makonlar» madaniyatiga aylanishi lozim.

Umuman aytganda, zamonaviy dunyoda qadriyatlarning o'zgarishi turizmning ijtimoiy-madaniy yo'nalishlarini aniqlashning eng muhim sharti sifatida baholanadi. Qadriyatlar o'zgarishi bilan madaniyat ham o'zgaradi. Madaniy tendensiyalar sharoitida ular falsafiy tadqiqotlarda yangi

iqtisodiyot manba va rivojlanishning faol asosi, yangi fikrlash manbai sifatida ko'rib chiqila boshlandi. Jamiyatning ma'naviy hayotida turizm tobora ko'proq tatbiq etilayotgan turli xil ijtimoiy munosabatlar, ta'limotlar, dinlar, harakatlar bilan amalga oshiriladigan madaniy hodisaga aylandi.

Bugungi kunda zamonaviy shaxs tushunchasi hamda jamiyatda shaxsning faolligi to'g'risidagi fikrlar bahsli munozaraga aylanmoqda. Ijtimoiy- madaniy jarayonlarda shaxs erkinligi chegaralanganligi zamonaviy odam tushunchasini rad etib, u «agar u sayohat jarayonlarni boshidan o'tkazmasa» o'zining «zamonning o'zgaruvchan individi» sifatida tasavvur qila olmaydi[6]. Bu esa zamonaviy shaxs tushunchasiga umuman mos kelmaydigan asosdir. Insonning sayyoh sifatida o'z manzilini ma'lum muddat tark etishi, insonning dunyo bo'ylab amaliy faoliyati uning ongi, intellektual, estetik, ijtimoiy-madaniy qarashlari o'zgarishini ta'minlaydi.

Turli jamiyat boshqaruvi davrlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barqaror rivojlanishi uchun shaxsning burchi va majburiyatlarini bajarishi, uning intellektual salohiyati, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish kabi omillar muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu borada davlat va jamiyat hayotining yuqori sifatini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan sohalar asosiy rol o'ynay boshlaydi. Bu borada B.Fouller turizm madaniyatining muhim omillaridan biri – bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish va zamonaviy faoliyatni tashkil etilganligini quyidagi omillar bilan izohlaydi[7]:

- globallashuv natijasida dunyo eklektik makonga aylandi;
- ilmiy-texnika inqilobi aloqa vositalarini rivojlantirdi, ular esa odamlar va hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-madaniy, siyosiy chegaralarni qisqartirdi, bu jarayonlar informatsion madaniyatga ehtiyojni oshirdi.
- «madaniyat iste'mol»i tushunchasi, bo'sh vaqtning yangi yo'nalishlari va undan foydalanish etikasi shakllandi;
- turizmning keng faoliyat turiga aylanishi bo'sh vaqtni chet elda o'tkazish odatlarini vujudga keltirdi.

B. Foulerning ta'kidlari zamonaviy turizm madaniyatini tushunishda tizimli tahlil uchun qulay ramka beradi. Uning ko'rsatgan to'rt omili — globalizatsiya natijasida paydo bo'lgan eklektik makon, ilmiy-texnik inqilobning aloqa vositalarini rivojlantirishi, «madaniyat iste'moli» kontseptsiasining shakllanishi va bo'sh vaqtni chet elda o'tkazish odatlarining kengayishi — bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro bog'liq jarayonlardir. Quyida har bir omilning madaniy, ijtimoiy va ekologik oqibatlari ilmiy nuqtai nazardan qisqacha tahlil qilinadi.

Birinchidan, globalizatsiyaning eklektik makon yaratishi mahalliy va global madaniyatlar o'rtasidagi chegaralarni noaniq qiladi. Bu jarayon hududiy o'ziga xoslikni susaytirishi bilan birga yangi sintez va madaniy shakllarning — gastronomik, musiqiy yoki estetik ehtiyojlarining — paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Turizm maydonlari endi yagona «Sof» hududlar sifatida emas,

balki turistik talabga moslashtirilgan, ko'p madaniy unsurlarning aralashgan makonlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Natijada "joy haqiqiyli" muammolari paydo bo'ladi: turist uchun qulay, lekin mahalliy jamoa uchun identitetni zaiflashtiruvchi sahnalashtirish holatlari ko'payadi.

Ikkinchidan, ilmiy-texnik inqilob va kommunikatsiya vositalarining rivoji ijtimoiy-madaniy chegaralarni qisqartirdi. Axborot oqimi va onlayn platformalar orqali ma'lumot tez tarqaladi, bu esa turistik intilishlarni standartlashtiradi: "top-10" ro'yxatlar, onlayn baholar. Shu bilan birga, kommunikatsiya vositalari mahalliy jamoalarni global auditoriya bilan bog'lash, ularning ovozini ko'tarish imkonini ham beradi. Ammo tez axborot almashinuvi "tezkor iste'mol"ni rag'batlantirib, resurslar ustidan bosimlarni kuchaytiradi.

Uchinchidan, "madaniyat iste'moli" tushunchasi bo'sh vaqtning yangi istiqbollari belgilab beradi. Bo'sh vaqt endi shunchaki dam olish emas; u tajriba, imidj va ijtimoiy kapitallashuv manbai hisoblanadi. Bu holatda turistik faoliyat iste'mol etiladigan mahsulotga aylanadi: tajriba paketlari, fotografik sahnalar, "insta-dost" atraksionlar. Shu bilan bog'liq etik masalalar — autentiklik, madaniy appropriasiya va barqaror iste'mol — ilmiy va siyosiy diqqat markaziga aylanadi.

To'rtinchidan, turizm faoliyatining kengayishi va bo'sh vaqtni chet elda o'tkazish odatlarining keng tarqalishi sayohatni jamiyat hayotining qadriyatli amaliyotiga aylantirdi. Bu jarayon sayohatga kirish imkoniyatlarini demokratlashtirsa-da, tengsizlik ham ko'zga tashlanadi: sayohat imkoniyatlari bo'yicha ijtimoiy tafovutlar va ekologik izlar kuchayadi. Jamiyatlarda "sayohatli madaniyat" paydo bo'lib, bu mahalliy turizm siyosati va infratuzilma ishlab chiqishda yangi talablar qo'yadi.

Foularning fikrlari zamonaviy turizm madaniyatining murakkab va ko'p qirrali tabiatini ochib beradi. Ushbu omillarni tahlil qilish mahalliy identitetni himoya qilish, barqaror turizm siyosatini ishlab chiqish va turistik tajribalar etik chegaralarini belgilash uchun zarur. Kelajak tadqiqotlari ushbu jarayonlarning mintaqaviy o'ziga xosliklari, raqamli platformalarning rolini chuqurroq o'rganish hamda turizmning ekologik-ijtimoiy xarajatlarini kvantifikatsiyalashga yo'naltirilishi lozim.

Turizm ijtimoiy tuzum, ommaviy axborot vositalari, yangi texnologiyalarning rivojlanishi bo'sh vaqtning mazmuni, harakatchanlik, amaliyot, faoliyat bilan izohlanadigan tushunchadir. Bundan tashqari, jamiyatda shaxsning ichki rivojlanish omillari va shaxslararo o'zaro ta'sir, madaniyatlararo muloqot, murakkab iqtisodiy va sotsiomadaniy fenomendir[8]. Jamiyatning o'zgarib borishi natijasida intellektual va ijodiy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan yangi turdagi turizm madaniyatiga ega shaxs shakllana boshladi deb aytishimiz mumkin. Iqtisodiy faoliyatning ustuvorligi tovarlarni ishlab chiqarishdan xizmatlar sohasi hisoblangan turizm sohasiga o'tdi, bu esa samaradorlik va o'sish manbalari, ma'lumot va bilimlarning to'planishida

namoyon bo'ladi. Turizm - madaniyatlar almashinuvi inson bilimlarini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan gnoseologik yo'nalish hisoblanadi. Dunyo mamlakatlari va boshqa etnoslar haqida ma'lumot va bilimlarni to'plash, ulardan bahra olish turizm madaniyatining gnoseologik funksiyasini namoyon etadi.

Butowski va boshqalar tomonidan taqdim etilgan maqolada[9] turizm nazariyasida ontologik masalalarni chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Mualliflar turizmni faqat ijtimoiy konstruktsiya sifatida ko'rish yetarli emasligini ta'kidlaydilar va uni yangi-realistik pozitsiyadan yondashuv orqali tahlil qiladilar. Bu yondashuv J. Searle kabi ijtimoiy ontologik konseptlarni asos qilib oladi, natijada turizm subyektiv tushunchalardan mustaqil, o'zining alohida "ontologik qatlamlari" mavjud bo'lgan fenomen sifatida qaraladi. Maqola asosiy e'tiborni turizmning nazariy konstruktlariga qaratadi va empirik tadqiqotlarga nisbatan ko'proq falsafiy tahlil ochib beradi.

Maqolada mualliflar turizm fenomenini tashkil etuvchi asosiy komponentlarni aniqlashga harakat qiladilar. Turizm faqat ijtimoiy munosabat va subyektiv tajriba emas, balki landshaftlar, binolar, xatti-harakatlar va institutsional tartiblar orqali ham shakllanadi. Shu jihatdan turizmning haqiqiyliги bir necha qatlamdan iborat bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi va turizmning mavjudligini ta'minlaydi.

Butowskilar maqolasida quyidagi savollarga javob topiladi: "Turizm nimadan iborat?", "Turistik obektlar qanday mavjud bo'ladi?". Maqola turizm sohasida nazariy asoslarni mustahkamlash va turizm fenomenini yanada chuqurroq tushunish uchun muhim konseptual poydevor vazifasini bajaradi. Shu tariqa, Butowskilar yondashuvi turizm tadqiqotlarida ijtimoiy va obektiv qatlamlarni integratsiyalashga xizmat qiladi.

Wang tomonidan taqdim etilgan "Nature as a medium to consciousness and transcendence" maqolasi tabiat tajribasini fenomenologik va falsafiy-psixologik nuqtai nazardan o'rganadi. Muallifning yondashuvi tabiatni turist tajribasida shunchaki vizual yoki tashqi obekt sifatida emas, balki inson ongini va ruhiy holatini transformatsiya qiluvchi vosita sifatida ko'radi. Wang tabiat-turizm tajribasida gnoseologik va ontologik elementlar qanday birlashishini tahlil qiladi, ya'ni inson bilishi va tabiatning mavjudligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi.

Maqolada turistning "ma'naviy tajriba" qidiruvi markaziy o'rin tutadi. Wang fikricha, tabiat bilan bevosita aloqada bo'lish insonning ongini kengaytiradi va transsendental, ruhiy tajribalarni shakllantiradi. [10] Bu jarayon turizmni faqat iqtisodiy yoki ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki ontik-gnoseologik fenomen sifatida ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, turizm estetik extiyoj, shaxsiy bilish va idrok jarayonlariga, shuningdek, madaniy va diniy dunyoqarash bilan bog'liq bo'lgan fenomen sifatida talqin qilinadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda turizmni falsafiy jihatdan o'rganish jarayoni uning ontologik va epistemologik asoslarini qayta ko'rib chiqish zaruratini tug'dirdi. Turizm ko'proq iqtisodiy yoki

ijtimoiy hodisa sifatida yondoshilgan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotlarda u murakkab ijtimoiy-madaniy tizim sifatida qaralmoqda. Turizm falsafiy tafakkur doirasida, uning ontologik va gnoseologik negizlari nuqtai nazaridan keng tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, turizm insonning o'zini anglash, dunyoni idrok etish va madaniyatlararo muloqot orqali ma'no hosil qilish faoliyatining integrativ ko'rinishidir. Turizm mohiyatan nafaqat iqtisodiy jarayon, balki falsafiy, estetik va aksiologik tajriba sifatida namoyon bo'ladi. Sayohat jarayonida inson o'zining "men"ini yangidan kashf etadi, makon va tabiat bilan o'zaro munosabatda bo'lib, mavjudlikning yangi qatlamlarini his etadi. Shu bois turizmni falsafiy jihatdan o'rganish uning tashqi ko'rinishidagina emas, balki ichki ma'naviy mazmunini ham yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Энценсбергер, Х.М. «Моя читательская аудитория - это не обязательно немцы». Запись беседы и пер. с нем. Н.Г. Васильевой [Текст] / Х.М. Энценсбергер // Иностранная литература. - 2010. - № 9. - С. 217-247.
2. Тоффлер Э. Футуршок. СПб.: Лань, 1999. С. 57
3. Тоффлер Э. Футуршок. СПб.: Лань, 1999. С. 65
4. Тоффлер Э. Футуршок. СПб.: Лань, 1999. С. 77
5. Тоффлер Э. Футуршок. СПб.: Лань, 1999. С. 92
6. . Миллс Ч. Социологическое воображение. М.:Nota bene, 2001. С. 6
7. Фаулер Б. Пьер Бурдьё и теория культуры: критический анализ // Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Серия 11. Социология. М., 1999. №3. С. 12-20
8. Музаффаров А.М. Туризм – маданиятлараро мулоқотни ривожлантириш омили. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (phd)диссертацияси автореферати. Тошкент – 2020. Б. 19
9. Butowski, L., & Butowski, S. (2023). Exploring ontology of tourism: A new-realist approach. Journal of Travel Research, 62(4), 719–733. <https://doi.org/10.1177/00472875221119966>
10. Wang, Shujie. "Nature as a Medium to Consciousness and Transcendence: A Phenomenological and Philosophical-Psychological Perspective." Annals of Tourism Research, vol. 98, 2023, 103543, <https://doi.org/10.1016/j.annals.2023.103543>